

ABU ALI IBN SINONING TA`LIM-TARBIYAGA OID FIKRLARI

T.B.Norimbetov

Ipak Yo'li Innovatsiyalar Universiteti dotsenti, psihol.f.n.

N.T.Norimbetova

Ipak Yo'li Innovatsiyalar Universiteti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14958150>

Annotatsiya. Sharqning bуйk mutafakkurlari jahon stivilizastiyasi rivojlanishiga salmoqli qissa qoshgan.Ushbu mutafakkurlarning asarlari hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qatmagan va qullanma sifatida jahon fani va madaniyatida keng fojydalaniladi.Shunday allomalardan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Ushbu Sharq allomalasi nafaqat tibbiyot,falsafa, tabyi va gumanitar fanlar balkyi ta'lim va tarbiya sohasiga ham katta e'tibor qaratgan.Uning ta'lim-tarbiyaga oyid ugitalari va yaratgan asarlari hozirgi kunga qadar o'sib kelayiotgan yosh avlodni tarbiyalashda va ta'lim berishla jahonda keng qo'llaniladi.

Kalit so'zlar: Ta'lim-tarbiya, kamolot, bilim, ma`rifat, birga o`qitish, bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkur, o`quv materiallarini o`zlashtirishda bir-biriga yordamlash, o`zaro suhbat, bolalarga bilim berish o`qituvchining ma`suliyati.

Kirish. IX-XI asr Markaziy Osiyo fani va madaniyati uchun oltin davr hisoblanadi. Sharqning bуйk mutafakkurlari jahon fani taraqqiyotiga salmoqli qissa qo'shib, fan va madaniyan rivojlanishida bуйk allomalar sifatida e'trof e'tilgan. Shunday allomalardan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Ibn Sino haqiqiy qomusiy olim sifatida o'z davridagi fanlarning barcha y'onalishlari bilan muvaffaqiyatli shug`ullangan va ularga oid ilmiy asarlar yaratgan. Turli manbalarda uning 450 dan ortiq asarlari qayd etilgan. Ibn Sino xayioti va ijodi bilan shug`ullangan L.G.Soldadzening [3] takidlashicha bu asarlardan 80 tasi falsafa, ilohiyot va tasavvufga tegishli, 43 tasi tabobatga oid, 19 tasi mantiqqa, 26 tasi psixologiyaga, 23 tasi tibbiyot ilmiga, 7 tasi astronomiyaga, 1 tasi matematika, 1 tasi muzikaga, 2 tasi kimyoga, 9 tasi etikaga, 4 tasi adabiyotga va 8 tasi boshqa olimlar bilan bo'lgan ilmiy yozishmalarga bag'ishlangan. Alloma yaratgan ilmiy asarlar keyingi avlodlar uning ilmiy asarlari boy meros bo`lib qoldi.

Materiallar, usullar, natijalar. Ibn Sino ham boshqa mutafakkirlar kabi o`zining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog'liq holda ifodalagan, maxsus risolalarda talqin etgan. Bunda u birinchi o`ringa tibbiyot fanlarini qo'yadi. Falsafani esa ikki guruhga, ya`ni nazariy va amaliy guruhlarga bo'ladi. Nazariy guruh kishilarni o`zidan tashqaridagi borliq holati haqidagi bilimlarni egallashga yo'llasa, amaliy qism bizga bu dunyoda nimalar qilishimiz kerakligini o`rgatadi deydi. U birinchi guruhga etika, iqtisod, siyosatni kiritadi. Ikkinchi guruhga fizika, matematika, metafizika, dunyo qonuniyatlarini o`rganuvchi barcha fanlarni kiritadi.

1961-yilda nashr qilingan «O'rta va yaqin Sharq allomalarining fikrlari»[2] nomli tanlangan asarlar to'plamida, Abu Ali ibn Sino kamolotga erishishning birinchi mezonini sanalgan ma`rifatni egallashga da`vat etadi. Chunki ilm-fan insonga xizmat qilib, tabiat qonunlarini ochib avlodlarga yetkazishi kerak. Bu maqsadga yetishish uchun inson qiyinchiliklardan qo`rqmasligi zarur, deydi. «Ey birodarlar! Odamlarning botiri mushkulotdan qo`rqmaydi. Kamolot hosil qilishdan bosh tortgan kishi odamlarning eng qo`rqog'idir». Zero, ma`rifatli kishi jasur, o`limdan ham qo`rqmaydigan, faqat haqiqatni bilish uchun harakat qiladigan bo'ladi, deydi u fikrini davom ettirib.

Biz tomonimizdan «Tasavvufda komil inson masalasi» maqolada Bilimsiz kishilar johil boʻladi, ular haqiqatni bila olmaydilar, deb ularni yetuk boʻlmagan kishilar qatoriga qushadi. Bunday kishilardan ilmiy fikrlarni sir tutish kerakligini taʼkidlaydi. U haqiqatni bilish uchun bilimga ega boʻlish kerakligi, lekin har qanday bilim ham haqiqatga olib kelmasligi, inson oʻz bilimining haqiqiyiligini bilishi uchun mantiqni ham bilishi zarurligini uqtiradi. Ibn Sinoning taʼlim metodlari haqidagi taʼlimoti asosida ham bilimlarni egallashda mantiqiy tafakkurga, shaxsiy kuzatish va tajribalarga tayanish kerak degan gʻoya yotadi.

Ibn Sino bolani maktabda oʻqitish va tarbiyalash zaraurligini qayd etib, maktabga barcha kishilarning bolalari tortilishi va birga oʻqitilishi va tarbiyalanishi lozim deb, bolani uy sharoitida yakka oʻqitishga qarshi boʻlgan. Bolani maktabda jamoa boʻlib oʻqishini foydasi quyidagicha ifodalangan:

Agar oʻquvchi birga oʻqisa u zerikmaydi, fanni egallashga qiziqish yuzaga keladi, bir-biridan qolmaslik uchun harakat, musobaqalashish istagi rivojlanadi. Bularning hammasi oʻqishning yaxshilanishiga yordam beradi.

Oʻzaro suhbatda oʻuvchilar bir-biriga kitobdan oʻqib olganlari, kattalardan eshitganlarini hikoya qiladilar.

Bolalar birga toʻplanganlarida bir-birini hurmat qila boshlaydilar, doʻstlashadilar, oʻquv materiallarini oʻzlashtirishda bir-biriga yordamlashadilar, bir-biridan yaxshi odatlarni qabul qiladilar

Bilim olishda bolalarni maktabda oʻqitish zarurligini qayd etar ekan, taʼlimda quyidagi tomonlarga rioya etish zarurligini taʼkidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qoʻymaslik;
- taʼlimda yengildan ogʻirga borish orqali bilim berish;
- olib boriladigan mashqlar bolalar yoshiga mos boʻlishi;
- oʻqitishda jamoa boʻlib maktabda oʻqitishga eʼtibor berish;
- bilim berishda bolalarning mayli, qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- oʻqitishni jismoniy mashqlar bilan qoʻshib olib boorish[4].

Bu talablar hozirgi davr taʼlim tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir. Yuqoridagi masalalarga oʻzining «Tadbiri manzil» asarida maxsus boʻlim bagʻishlaydi. «Bolani maktabda oʻqitish va tarbiyalash» («Omoʻzish va parvarish madrasa farzand») boʻlimida taʼlim va tarbiya jarayonini ochib beradi. Yuqoridagi tamoyillar esa bolalarni yengil-yelpi bilim olish emas, balki har tomonlama chuqur va mustahkam bilim olishiga yordam beradi[5].

Bolalarga bilim berish oʻqituvchining maʼsuliya burchidir. Shunga koʻra ibn Sino oʻqituvchining qanday boʻlishi kerakligi haqida fikr yuritar ekan, shunday yoʻl-yoʻriqlar beradi. Bular quyidagilardan iborat:

- bolalar bilan muomalada jiddiy boʻlish;
- berilayotgan bilimning bolalar qanday oʻzlashtirib olayotganiga eʼtibor berishi;
- taʼlimda turli metod va usullardan foydalanishi;
- bolalarning xotirasi, bilimlarni egallash qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqitira olishi;
- berilayotgan bilimlarning eng muhimini ajratib bera olishi;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berishi;
- har bir soʻzning bolalar hissiyatini uygʻotish darajasida boʻlishiga erishishi zarur, deydi olim[6].

Xulosa. Allomaning ushbu ta'lim-tarbiya oyid fikrlari jahon stvilizastiyasida, jumladan ta'lim-tarbiya muommalari bilan shufullanuvch barcha mutafakkurlar, O'rta asrlardan to shu kunga qadar asosiy qullanma sifatida foydalanishmoqda. Allomaning ta'lim-tarbiya oyid fikrlari hatto jamoat va siysat arboblari ham alohida e'tibor qaratgan. Jumladan Hindostonning buyuk davlat arbobi J.Neru o'zining «Hindistonning ochilishi» degan asarida O'rta Osiyo olimlarining tilga olar ekan: «Ibn Sinoning shaxsiy faoliyati dunyoviy ilmlarni o'rganish haqidagi ta'limotlari, ta'lim-tarbiya haqidagi mulohazalari, umuminsoniy pedagogik fikr taraqqiyotida o'ziga xos o'rinni egallaydi»[1] deb Ibn Sino nomini alohida ta'kidlab o'tadi.

Zamonaviy ta'lim-tarbiya allomaning ushbu ugitlari va fikrlariga alohida e'tibor qaratilib ta'lim-tarbiya jaraiyonida Respblikamizda va jahonda keng qullaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar/Используемая литература/References:

1. Из истории философии Средней Азии и Ирана VII—XII вв. М., 1959.
2. Избранные произведения мыслителей стран Ближ. и Ср. Востока. М.,1961.
3. Л.Г. Салдадзе., Ибн Сина.(Авеценна) Ташкент;, изд. им Г. Гуляма 1985г.
- 4.Т.В.Norimbetov. Sharq allomalari asarlarida bilimga qiziqishni shakillantirishda oiylaning o'rni haqida fikrlar. Toshkent; "Oyla"Ilmiy-amaliy markazi konferentsiyasi maqolalar to'plavi 2018y. 262-265 betlar.
4. Т.В.Norimbetov. Tasavvufda komil inson masalasi. (Milliy va ma'naviy qadryatlarning yuksalishida ayollarning o'rni)Тошкент;. TIU ning maqolalar to'plami. 2016-yil. 312- bet.
5. Т.В.Norimbetov., К.М.Ахмедов.,N.T.Norimbetova. Abu Ali Ibn Sinoning ta'lim ta'rbyia jarayionida aqliy tarbiya, odob - axloq va shaxs kamolati haqidagi fikrlari. Ilm-fan xabarnomasi jur.№2 2025y.52-55 betlar.